2. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T.. Yashil iqtisodiyot. Darslik. T.: Universitet, 2020, 156-bet
3. A.Stainer 2017, “The Green Shoots of the Green Economy”, Environmental Conservation, №2 vol 3 2019.
4. Brown L.R. Eco-Economy. Building an Economy for the Earth. Earth Policy Institute. W.W. Norton&Company. New York, London, 2019.
5. https://www.project-syndicate.org/commentary/the-green
6. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/ecology-2
Zhamoliddinovich, Urinov B. "Strategic Priorities of the University." JournalNX, 2020, pp. 452-459.
7. www.uznature.uz

MINTAQALARDA KICHIK INNOVATSION KORXONALARNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Axmadjanov Ilyosbek Ilxomjon o‘g‘li,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mintaqalarda kichik biznes korxonalari faoliyatini rivojlantirishda yangi innovatsion kichik korxonalarni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari va nazariy tomonlari bo‘yicha ma’lumotlar berilgan bo‘lib, hamda kichik innovason korxonalardagi innovatsion faoliyatni olti bosqichli sxemasi taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy o‘sish, mintaqalar, potensial, kichik biznes, yalpi ichki maxsulot, kichik innovatsion korxonalar, globallashuv, yangi texnologiya, modernizatsiya, diversifikatsiya, yangi biznes modellar, integratsiya, raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar, Small and Medium Enterprise.*

Annotation: *This article provides information on the specific features and theoretical aspects of the organization of new innovative small enterprises in the development of small business enterprises in the regions, and a six-stage scheme of innovative activities in small innovative enterprises is proposed.*

Аннотация: *В статье представлена информация об особенностях и теоретических аспектах организации новых инновационных малых предприятий в развитии предприятий малого бизнеса в регионах, а также предложена шестиэтапная схема инновационной деятельности на малых инновационных предприятиях.*

Dunyo mamlakatlarida iqtisodiyotni barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirish, yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, aholi bandligini ta’minlash maqsad qilingan bo‘lib, bularni barchasi tanlab olingan hududda amalga oshiriladi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda mintaqalar iqtisodiyotini o‘rni yuqoridir, bundan tashqari investitsiyalar jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda mintaqaviy iqtisodiyot shakllariga e’tibor qaratishimiz kerak bo‘ladi.

Mintaqaviy iqtisodiyot o‘z navbatida mintaqalarni iqtisodiy rivojlanishini, geografik joylashuvini, tabiiy resurslarini, demografik xolatini, ishlab chiqarish poetnsialini o‘rganadi va shu asnoda ishlab chiqarish tarkibini aniqlash, aholini ijtimoiy xolatini ko‘tarish va xo‘jaliklarni joylashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes korxonalarini rivojlantirishda bir qator yangicha yondashuvlar talab etmoqda, xorijiy mamlakatlar tajribalaridan shuni anglash mumkkinki, kichik biznes korxonalarisiz iqtisodiyotni barqaror rivojlantirib bo‘lmaydi, sababi ko‘plab mamlakatlarda yalpi ichki maxsulot tarkibida kichik biznes 40-50 % ni tashkil etadi. Shu sababdan biz tadqiqotlarimizda kichik biznes rivojlanishi va u bilan bog‘liq muammolariga qaratdik, hamda kichik biznesni mintaqalarda o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantirgan holda milliy iqtisodiyot va jaxon iqtisodiyoti doirasida anologi yo‘q bo‘lgan eksportbob mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishni maqsad qilingan.

Zamonaviy adabiyotlardagi ma’lumotlardan shuni anglash mumkinki, kichik biznes faoliyati bo‘yicha ko‘plab olimlar o‘z fikrlarini bayon etgan, L.Shapiro esa inson tadbirkor sifatida o‘zining taklifi bilan bozor sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirib boradi va B.Karlof esa tadbirkor ishlab chiqarish omillarini optimal umumlashtiruvchi shaxs sifatida ko‘rgan, mehnat, kapital, resurslardan to‘g‘ri foydalanishda ijodiy yondashuvlarni talab etadigan faoliyat deb atagan.

Mamlakat iqtisodiyotida innovatsiyalar muxim element sifatida qaraladi, “Butun jaxon intelektual mulk tashkiloti general direktori Frensis Garri fikriga ko‘ra innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning markaziy xarakatlantiruvchi kuchi deb hisoblagan, u tomonidan bo‘sh ish o‘rinlari yaratiladi, jaxon bozorida korxonalarni samarali raqobatlashishni ta’minlovchi kalit sifatida qaragan” [1]. “Bundan tashqari innovatsiyalarga yuqori baxoni Booz & Company konsalting kompaniyasi raxbari Shumit Banerji tomonidan xam berilgan bo‘lib, xar qanday korxonalar faoliyatini jadal rivojlanishi uchun yangiliklar eng muhim elementlar deb qaragan” [2]. “Shu bilan birga Banerji yangi g‘oyalar jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishidagi katalizatoridir deb ta’rif berdi, Alctel-Lucent kompaniyasining ijrochi direktori Ben Vervaayoen esa innovatsiya global muammolarni yechishda insoniyatga yordamchi sifatida ko‘rdi” [3].

Bunday o‘zgarishlar zaminida yangi biznes-modellar, g‘oyalar shakllanishiga olib keladi va an’anaviy holatda faoliyat yurituvchi kompaniyalarda jiddiy tarkibiy va innovatsion o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Yangi minglik boshlanishida raqamli texnologiyalarni ko‘payishi, mobil internet faollashuvi, kichik hajmli ishlab chiqarish uskunalarini ishlab chiqarishni kuchayishi, sun’iy ongni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalariga jadal kirib kelishi fonida yangi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tizimlari rivojlandi. “Milliardlab aholining cheksiz ehtiyojlarini bugunki mobil aloqa vositalari orqali ta’minlash asnosida virtual tizim, virtual iqtisodiyot shakllana boshladi. Bunday o‘zgarishlar zamirida yangi biznes-modellar an’anaviy kompaniyalar ishlab chiqarishini, transport, iste’mol, yetkazib berish tizimlarini tubdan o‘zgartirib yubordi. Bu innovatsiyalar eskirib, ishlamay qolgan mexanizmlarni almashtirish, tubdan o‘zgartirish, islohotlarni yangidan boshlashga xizmat qiladi” [4]. Yangi texnologiyalarni jadal rivojlanishi va ularni amaliyotga joriy etilishi orqali uzoq kelajakda yangi sanoat tarmoqlarini shakllanishiga olib keladi.

Raqamli texnologiyalarni rivojlanishi bilan mamlakatlar va korxonalar o‘rtasidagi integratsiyalarni chuqurlashuvi, mamlakatlar iqtisodiyotini global iqtisodiyotga transformatsiyalashuvi rivojlandi.

Kichik innovatsion korxonalar esa kichik, mayda korxonalardan tashkil topgan korxonalardir, asosan ular mustaqil faoliyat yuritadi, shu sababdan sohaga yangiliklarni tez joriy etilishi bilan ajralib turadi, iqtisodiy rivojlanish indikatorlarini faol o‘zgartirib turadi, yalpi ichki maxsulot dinamikasini tez o‘zgarishiga ta’sir etadi. Kichik biznes – biznesga kirish qismi

faoliyatiga xos bo‘lgan belgilarga ega bo‘lgan, firma ichki munosabatlariga asoslangan, tashqi muhit bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tashkilotlar hisoblanadi [5]. “Kichik biznes” iborasi inglizcha so‘z bo‘lib, g‘arbiy Yevropa mamlakatlarida, Yaponiyada, “kichik va o‘rta biznes” deb, Hindistonda va Osiyo mamlakatlarida “kichik ishlab chiqarish” nomlari bilan qo‘llaniladi [6]. A.N.Azriliyananing katta iqtisodiy lug‘atida esa “kichik biznes – xususiy va kichik tashkilotlardan iborat bo‘lgan, bitta monopoliya darajasiga chiqmagan va iqtisodiyotning barcha sohalari uchun zarur bo‘lgan tashkilot yoki korxonalar hisoblanadi. Bizning fikrimzcha kichik biznes – bu yangiliklarni tez amaliyotga joriy etadigan, ixcham, o‘z faoliyatini tez o‘zgartiruvchan va tez moslashuvchan, axborotlarni tez qayta ishlaydigan, iqtisodiyotni tez rivojlanishiga ta’sir etuvchi eng muhim hudud drayveridir. Kichik innovatsion korxonalar esa kichik biznes korxonalarini yangiliklarni o‘z faoliyatiga qayta-qayta joriy etish orqali ishlab chiqarishda o‘ziga xos bo‘lgan, ichki va tashqi bozorlarda anologi bo‘lmagan mahsulotlar ishlab chiqaruvchilardir.

Shu bilan birga iqtisodiy adabiyotlarda kichik innovatsion korxonalar to‘g‘risidagi qarashlarda olimlar o‘rtasida baxsli tomonlari mavjud, kichik korxonalar faoliyati va samaradorligi, uni iqtisodiyotga ta’siri bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, kichik korxonalar faoliyatini nazariy masalalari bilan M.Veber, Dj.K.Gelbreyt, A.Marshall, M.Porterlar shug‘ullanishgan. “Ularni tadqiqotlarini o‘rganish orqali kichik korxonalarni asosan ishchilar soni orqali belgilashganliklariga e’tiborimizni qaratamiz, savdoda 15 kishigacha, ishlab chiqarishda 200 kishigacha bo‘lgan korxonalarni kichik korxonalar deb hisoblashgan”. Ayrim olimlar tadqiqotlariga e’tibor qaratsak, ular ishlab chiqargan maxsulotlari xajmi va jami xo‘jalik aylanma xajmi orqali belgilashgan. Bundan tashqari kichik innovatsion korxonalar ma’lum hududda ishlab chiqarishni rivojlanishiga xissa qo‘shishi, bozordagi ulushi oshganligi bilan ko‘rinishi kerak bo‘ladi. Bevosita mahalliy bozor kon’yukturasiga ta’sir ko‘rsatishi lozim, shu orqali hududlarda kichik korxonalarni rivojlantirib, ularga yangiliklarni joriy etish yo‘llarini aniqlab olinadi. Bundan tashqari xorij adabiyotlarida kichik va o‘rta korxonalar kabi yondashuvlar xam mavjud, ko‘p adabiyotlarda “kichik va o‘rta korxonalar” degan iboralar uchraydi, Small and Medium Enterprise -SME deb nomlashadi.

Small and Medium Enterprise -SME xalqaro statistikaga ko‘ra ishlab chiqarishda 500 kishigacha, mikro tashkilotlarda 10 kishigacha, o‘zini-o‘zi band etishda 5 kishigacha bo‘lgan korxonalarni kichik korxonalar deb qarashgan. Yevropa Ittifoqida esa 1996 yil 3 aprelda qabul qilngan me’yoriga ko‘ra esa mikro tashkilotlarda 9 kishigacha, kichik korxonalarda 10-49 kishigacha bo‘lishi kerak deb qabul qilingan. “Yu.V.Taraxuna esa kichik korxonalarni innovatsion faoliyatdagi roli oshirishda innovatsiyalarni kategoriyalarga ajratishni taklif etgan”, kichik korxonalarda innovatsiyalar tor ixtisoslashuvni boshdan kechiradi. Tor ixtisoslashuv esa vazifalar taqsimotini aniqlashtiradi, mavjud byurokratik to‘siqlarni shakllanishiga yo‘l qo‘ymaydi, xammani vazifasi aniq, biri ikkinchisini vazifasini bajara olmaydi, ilmtalab kasblar shakllanadi va shu orqali hududda kichik korxonalar rivojlanadi.

Innovatsion g‘oyalar kichik korxonalar doirasida shallanadi, rivojlanadi, amaliyotga qo‘llab ko‘riladi, keyingi bosqichda esa yirik korxonalarga tadbiq etish mumkin bo‘ladi, kichik korxonalar qo‘llaniladigan yangiliklar yuqori darajadagi daromad berishi bilan ajralib turadi, innovatsion xarajatlarni tartibga solishda sodda mexanizmlardan foydalanish mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mintaqalarda kichik biznes korxonalarini rivojlantirishda kichik innovatsion korxonalar misolida tadqiqotlar o‘tkazdik, hamda xar bir

xududlarni saloxiyatidan kelib chiqqan holda rivojlanishi mumkin bo‘lgan tarmoqni tanlab olib, uning negizida kichik innovatsion korxonalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish mumkin bo‘ladi.

Shu bilan birga dunyo xo‘jaligi tizimida so‘nggi yillarda jadal rivojlanish ta’sirida kichik biznes sohalarining ahamiyati va roli ortib borilayotganligini inobatga olgan holda kichik biznesdan foydalanishni yanada rivojlantirish talab qilinadi. Bu bilan sohani yanada jadal kengayishiga, soha faoliyatini yanada ahamiyatini yanada oshiradi. Mamlakatda kichik biznesni rivojlantirishdan kutilayotgan natija esa aholini ish bilan bandligini oshirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali iqtisodiyotda yangi kasb-hunarlarni shakllantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Francis Gupy. Why Innovation Is Important. 11 The Global Innovation Index 2011-2012. Accelerating Growth and Development. (Электронный ресУРС1. - URL: http://www.gloЬaliппovatioпiпdex.orglgii!maiп/fuПreport! index.html. P.X1
2. Shumeet Banerji. Innovation: Increasingly Global, Increasingly Vital. 11 тье. Global lnnovation Index 2011-2012.
3. Accelerating Growth and Development. [Электронный ресурс]. URL: http://www.globalinnovauQnindcx.orlVgii!main/ t'ullrcport/index.html P. УН
4. Shumeet Banerji. Innovation: Increasingly Global, Increasingly Vital. 11 тье. Global lnnovation Index 2011-2012.
5. Accelerating Growth and Development. [Электронный ресурс]. URL: http://www.globalinnovauQnindcx.orlVgii!main/ t'ullrcport/index.html P. УН
6. Ахунова Ш.Н. Тўртинчи саноат инқилоби ва унинг дунё хўжалигига таъсири. Biznes-Эксперт журнали. 2020 йил, №2. 22-23 б.
7. Краснов И. Роль малых и средных предприятий и мировой экономике.- Международный журнал «Проблемы теории и практики управления», Официальное издавние Международного научно-исследовальского института проблемы управления, 1/2013,www.uptp.ru, 38 с.
8. Кенжаев И. Э., Балтабаев М. Т., Абдурахманов Ш. Ш. Иностранные Инвестиции В Малый Бизнес //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 159-164.
9. Urinov, Bakhrom Djamoliddinovich (2020) "THE QUALITY OF EDUCATION AND THE MAIN FACTORS AND CRITERIA THAT DETERMINE IT," Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 2 : Iss. 6 , Article 84.
10. Siddikov A. M., Baltaboev M. T., Abduraxmonov S. S. Formation and Development of Small Business in Uzbekistan //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 76-80.
11. Abdulxakimov Z., Abduraxmonov S. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini nazariy masalalari. – 2024.

Abduraxmonov S. S. O ‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 22. – С. 4-16.